**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

---

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 5
2025 yil 29 avgust

"Tasdiqlaman"
Samarqand davlat pedagogika
instituti rektori
Sh. Negmatova

Tanlovli.

# SIYOSIY GEOGRAFIYA FANINING O‘QUV DASTURI
## (kunduzgi, kechki)

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | **100000 - Ta’lim** |
| **Ta’lim sohasi:** | **110000 – Ta’lim** |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | **60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta’lim yo‘nalishi** |

4

**Samarqand – 2025**

| Fan/mavzu kodi | O‘quv yili | Semestr | Kreditlar |
|---|---|---|---|
| SGT404 | 2025-2026 | 7 | 4 |

| Fan/mavzu turi | Ta’lim tili | Haftadagi dars soatlari |
|---|---|---|
| Tanlov | O‘zbek/rus | 5/4 |

| | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Siyosiy geografiya | 60 (30/30) | 60 | 120 |

**2. I. Fanning mazmuni**

Siyosiy geografiya ijtimoiy geografik fan sifatida geografiya yo‘nalishi talabalariga jamiyatning siyosiy hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o‘rgatadi. U ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanlari bilan bir qatorda, geosiyosat, siyosatshunoslik, mamalakatshunoslik va boshqa fan tarmoqlari bilan uzviy aloqador. Siyosiy geografiya zamonaviy oliy ta’lim tizimida yuqori malakali geograf mutaxassislar tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda jamiyatning siyosiy hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlari, dunyo siyosiy haritasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari, tashqi iqtisodiy aloqalarning geografik jihatlariga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat. Fanning vazifasi talabalarni:

- siyosiy geografiyaning ilmiy-nazariy asoslari, jamiyatni siyosiy-hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi qonuniyatlari bilan tanishtirish;
- insoniyatni siyosiy-geografik rivojlanish tarixini o‘rgatish;
- dunyo siyosiy haritasining shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari, geosiyosiy jarayonlar bilan tanishtirish, ularni tahlil qilish va bashoratlash bo‘yicha asosli daliliy fikr – mulohazalar bildirish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar va ularning tadrijiy o‘zgarishlari, geografik jihatlarini o‘rgatishdan iborat.

**II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**

**II. I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**Siyosiy geografiya fanning maqsad va vazifalari.**

Siyosiy geografiya kursining predmeti - talabalarda jamiyatning siyosiy-xududiy tashkil etilishi va rivojlanishi, dunyo siyosiy haritasi va uning shakllanishi, davlatlar va geosiyosiy jarayonlar, qonuniyatlar xaqidagi bilimlarni shakllantirishdan iborat ekanligi. Siyosiy geografiya va gesiyosatni fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqalari. Ushbu kursni yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati. Siyosiy geografiya va geosiyosatning asosiy termin va tushunchalari.

**Siyosiy geografiyaning ijtimoiy geografik fan sifatida rivojlanishi.**

Siyosiy geografiya jamiyatni o‘rganuvchi ijtimoiy-geografik fanlardan biri sifatida. Siyosiy geografiyaning mohiyati, mazmuni. Uning vujudga kelishi va rivojlanishi xususiyatlari. Siyosiy geografiyani g‘arbda shakllanishi va rivojlanishi. Siyosiy geografiyaning vujudga kelishida F.Ratselning xizmatlari. Ratselning «Siyosiy geografiya» asari. Sobiq Ittifoq davrida siyosiy geografiya va geosiyosat fani. Zamonaviy siyosiy - geografik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari. Elektoral (saylovlar) geografiya.

**Siyosiy geografiya rivojlanish bosqichlari.**

Siyosiy geografiyaning ilmiy tadqiqot ob’ekti va predmeti. Uning geosiyosat bilan o‘zaro aloqadorligi. Siyosiy geografiyaning tadqiqot ob’ektiga bo‘lgan turlicha qarashlar. Siyosiy geografiyaning asosiy ilmiy tadqiqot ob’ekti bevosita siyosiy-hududiy tizimlar bilan bog‘liqligi. Davlat hududi, davlatni tashkil etish shakllari, davlat chegaralari, dunyo siyosiy haritasi va uning shakllanishi jarayonlari, mintaqalar, davlatlar va ularning siyosiy-geografik

tuzilishi va rivojlanishi, geosiyosiy jarayonlar, siyosiy kuchlar va markazlarning joylashuvi va boshqalar siyosiy geografiyaning muhim ilmiy tadqiqot ob'ektlari ekanligi.

**Davlat hududi, chegaralari va uni tadqiq etish masalalari, Davlat chegaralari va ularning tadrijiy rivojlanishi.**

Davlat va uning hududini siyosiy - geografik holati. Davlat chegaralari. Davlatlar o'rtasidagi chegaralar bilan tartibga solinadigan hududiy munosabatlar. Davlat hududlari va chegaralarini o'zgartirishning asosiy usullari. Davlat hududlari va chegaralarini o'zgartirishning asosiy usullari. Davlatni siyosiy va geografik o'rganish usullari. Chegara nizolari. Dengiz siyosiy geografiyasi. Funksionalizm va evolyusionizm. Hududning o'lchamlari va morfologiyasi.

**Geosiyosat fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.**

Geosiyosatning tadqiqot ob'ekti va predmeti. Bu borada turlicha qarashlarning mavjudligi. Asosiy geosiyosiy termin va tushunchalar. Geosiyosatning ilmiy-nazariy asoslari. Geosiyosatni fan sifatida vujudga kelishi. Geosiyosat fanining shakllanishida nemis olimi F.Ratselning roli.

**Dunyo siyosiy xaritasidagi anklav va eksklav hududlar geografiyasi.**

Anklav va eksklav tushunchalarining mazmun mohiyati. Anklav va eksklav tushunchalari turlicha qo'llanilish sabablri. Davlat hududining yaxlitligi, daxlsizligi. Suverenitet va hududiy yurisdiksiya. Hududlar almashinuvi. Separatizm muammosi. Dunyo siyosiy xaritasidagi anklav va eksklav hududlar. Jahon siyosiy xaritasidagi anklav davlatlar. Anklav hududlar va ularning turlarga bo'linishi. Jahon siyosiy xaritasidagi to'liq anklav hududlar. Pene anklav hududlar. Murakkab anklav hududlar. Yarim anklav hududlar. Eng katta anklav hududlar.

**Geosiyosatning asosiy qonun, kategoriyalari va funksiyalari.**

Geosiyosatni shakllanishida geografik determinizmning ahamiyati. Geografik determinizm - klassik geosiyosat - geosiyosat. Geosiyosatni shakllanishida klassik geosiyosatning poydevor vazifasini o'taganligi. Geosiyosiy konsepsiyalar. Klassik geosiyosiy konsepsiyalar va ularning mazmuni. Zamonaviy geosiyosiy konsepsiyalar va ularning mazmuni. Ularning ilmiy-amaliy ahamiyati.

**Dunyo siyosiy xaritasi va uning shakllanish bosqichlari, Dunyo siyosiy xaritasining qit'alar bo'yicha shakllanishi.**

Dunyo siyosiy xaritasi va uning shakllanish bosqichlari, Dunyo siyosiy xaritasining qit'alar bo'yicha shakllanishi.

**Dunyo siyosiy xaritasidagi faol siyosiy hududlar**

Zamonaviy geosiyosiy jarayonlar va faol siyosiy hududlar. Yaqin Sharq va Suriyadagi geosiy vaziyat. Davlatlar o'rtasidagi bahsli hududlar muammosi siyosiy munosabatlar. Afg'onistondagi siyosiy vaziyat. Zamonaviy dunyoda separatizm

**Jahon mamlakatlarining boshqaruv shakli va davlat tuzilish.**

Mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishining mazmun va mohiyati. Davlat boshqaruvining respublika shakli va uning turlari. Mamlakatlarning davlat shakli: boshqaruv shakli, davlat tuzilishi, siyosiy rejim, davlat rejimi. Dualistik (prezidentlik) respublika. Parlamentar respublika. Aralash (yarim prezidentlik) respublikasi. Prezidentli-parlamentar. Davlat boshqaruvining monarxiya shakli va uning turlari. Mutlaq monarxiya. Dualistik monarxiya. Parlamentar monarxiya.

**Jahonning yetakchi yettilik davlatlari geografiyasi.**

Katta Yettilik davlatlarining shakllanishi. AQSh iqtisodiyoti va siyosiy geografik o'rni. Yaponiya iqtisodiyoti va siyosiy geografik o'rni. Germaniya iqtisodiyoti va siyosiy geografik o'rni. Italiya iqtisodiyoti va siyosiy geografik o'rni. Fransiya iqtisodiyoti va siyosiy geografik o'rni. **Birlashgan Qirollik** iqtisodiyoti va siyosiy geografik o'rni**. Yaponiya** iqtisodiyoti va siyosiy geografik o'rni.

**Xalqaro siyosiy tashkilotlar.**

Birlashgan Millatlar tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, NATO, KXSHT, ASEAN. BRICS, Shanhay hamkorlik tashkiloti, MDH.

**O‘zbekistonning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o‘rni.**

O‘zbekistonning dunyo siyosiy haritasida tutgan o‘rni. O‘zbekistonning iqtisodiy-geografik, mineral xomashyo, demografik, iqtisodiy, transport-kommunikatsiya salohiyati va ularning geosiyosiy ahamiyati. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida tutgan o‘rni va roli. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo, MDH va jahon mamlakatlari bilan o‘zaro munosabatlari va ularning geosiyosiy jihatlari. Tashqi iqtisodiy aloqalarning nazariy asoslari va geografik jihatlari. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi. O‘zbekistonning yaqin (MDH) va uzoq xorij davlatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi. O‘zbekiston va jahon transport kommunikatsiyalari.

## III. Amaliy mashg‘ulotlar bo’yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Jahon mamlakatlarining siyosiy-hududiy tarkibi bo‘yicha guruhlarga ajratish.
2. Jahon mamlakatlarining davlat tuzumi va boshqaruv shakliga ko‘ra guruhlarga ajratish.
3. Jahonning etakchi yettilik davlatlarining siyosiy-hududiy tuzilishi va geosiyosiy xolatini tahlil qilish.
4. Jahon siyosiy xaritasidagi eksklav va anklav davlatlarni o‘rganish va baholash.
5. Jahon siyosiy xaritasidagi og‘riqli nuqtalar geografiyasi
6. Jahon siyosiy xaritasidagi davlatlarni rivojlanish darajasiga ko‘ra o‘rganish va baholash.
7. Jahonning yirik siyosiy va iqtisodiy tashkilotlari.
8. Yevropa davlatlarining siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish.
9. Shimoliy Amerika davlatlarining siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish.
10. Janubiy Amerika davlatlarining siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish.
11. Osiyo davlatlarining siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish.
12. Afrika davlatlarining siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish.
13. Avstraliya va Okeaniya davlatlarining siyosiy xaritasini chizish va tahlil qilish.
14. O‘zbekistonning siyosiy - hududiy tuzilishini o‘rganish va baholash
15. Geosiyosiy konsepsiyalar, Klassik geosiyosat va uning ahamiyati.

Amaliy mashg‘ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to‘ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o‘lchash, meteorologik asboblar bilan ishlash amallari bajariladi.

## IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

**Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:**

- Mavzuni og'zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmli topshiriq tuzish;
- Ma’lumotlarni jadval ko’rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videorolik tayyorlash;

| | |
|---|---|
| | - Ko'rgazmali qurol tayyorlash;<br>- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;<br>- Krassvord tuzish;<br>- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to'plash, tarjima qilish va tahlil qilish;<br>- Ha, yo'q javobli test tuzish;<br>- Audio dars tayyorlash;<br>- Internet ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish;<br>Adabiyotlar ro'yxatini tuzish;<br><br>**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:**<br>1. Jahon mamlakatlarini hududiy shakliga ko‘ra turlarga ajratish<br>2. Geogarfik determinizm<br>3. Siyosiy geografiyaning ilmiy tadqiqot ob'ektlari va tushunchalari.<br>4. Jahonning yirik iqtisodiy tashkilotlari va ularning roli<br>5. Siyosiy geografiya va geosiyosat: o‘zaro aloqalari va rivojanish hususiyatlari.<br>6. Klassik geosiyosat va uning ahamiyati.<br>7. Dunyo aholisi va demografik muammollar<br>8. O‘zbekistonning geosiyosiy holati.<br>9. Markaziy Osiyoda geosiyosiy jarayonlarga ta'sir qiluvchi omillar.<br>10. Jahonning yirik iqtisodiy tashkilotlari va ularning roli. |
| **3.** | **V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Talaba bilish kerak:**<br>• Geomorfologiya va geologiyasi asoslari fanining maqsad va vazifalarini, rivojlanish tarixi, magmatizm va uning turlari, tektonik xarakatlar va ularning turlarini, seysmik jarayonlar bo‘yicha asosiy shakllari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;*** **(bilim)**<br>• Talaba tog‘ jinslarini kelib chiqishiga ko‘ra turlarni, nomlarini, foydali qazilmalarini aniqlay olish, qo‘llash, tahlil qilish va prognoz qilish kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi; ***(ko‘nikma)***.<br>• Talaba dalada tog‘ jinslarini turlarini, fizik va kimyoviy xossalarini, nurash darajasini, foydali qazilmalarini nomini topish, ularni kartaga tushirish, minerallarning mexanik tarkibi, fizik va suv xossalarini mustaqil ravishda aniqlay olish va kartaga tushira olish hamda ularni tahlil qilish to‘g‘risida aniq ***malakalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)*** |
| **4.** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• *ma‘ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara*<br>• *interfaol keys-stadilar;*<br>• *diologik yondoshuv*<br>• *SWOT tahlili*<br>• *Wenn diagrammasi*<br>• *Bliz so`rov*<br>• *nilufar guli*<br>• *baliq skleti*<br>• *kim chaqqon*<br>• *blis so`rov*<br>• *blis test va boshqalar* |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri |

| | |
|---|---|
| | aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish. |
| **6.** | **VIII. Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ibragimov L.Z. Siyosiy geografiya. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashri. 2020. - 323 b.<br>2. Hasanov A. Geosiyosat. Toshkent. “Tamaddun” 2016. - 538 b.<br>3. Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Siyosiy geografiya. [Darslik] / Mas’ul muharrir: Komilova N.Q. – Toshkent: “Noshir”, 2022. – B. 234.<br>**IX. Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.<br>2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.<br>3. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan. /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.<br>4. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.- Toshkent, 2021. - 458 b.<br><br>**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI**<br>1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)<br>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF - 6108 - son farmoni.<br>**Axborot manbaalari**<br>1. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.<br>2. http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.<br>3. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali.<br>4. www.pedagog.uz<br>5. www.apkpro.ru/content/view<br>6. www.prometeus.nsc.ru/contents/books/slasten<br>7. www.relarn.ru/conf/conf2007<br>8. http://vilenin.narod.ru/Mm/Books/<br>9. http://www.allmath.ru/<br>10. http://www.ziyonet.uz/<br>11. http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru<br>12. t.me/geograflar_kutubxonasi - geografiya faniga oid ilmiy adabiyotlar kanali |

| | |
|---|---|
| 7. | Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o'quv-uslubiy kengashining 2025 yil "___" _____ _____-son bayonnomasi bilan ma'qullangan |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:**<br>S.R.Mirzaliyev – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi assistenti. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Y.T.Karimov - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi v.b. dotsenti (ichki)<br>L.Z.Ibragimov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kafedrasi professori (tashqi) |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 98 o'rinni egallagan Moskva davlat universitetning Geografiya fakulteti Geografiya yo'nalishi o'quv dasturi tahlil qilinib, mazkur fan dasturining 5 ta mavzusiga singdirildi.

https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_No7/b_1_Geomorfologiya_s_osnovami_geologii_2021.pdf

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetining 2025-yil 23-apreldagi 2-sonli farmoyish bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

**Tuzuvchi:** **S.R.Mirzaliyev**

**Kafedra mudiri:** **F.A.Xamroyeva**

**Fakultet dekani:** **U.N.Mirzayev**

**O'quv-ishlar bo'yicha prorektor:** **H.Musulmonov**

**Samarqand davlat pedagogika instituti "Geografiya" kafedrasi assistenti S.R.Mirzaliyev tomonidan tayyorlangan "Siyosiy geografiya" o'quv fan dasturiga**

## TAQRIZ

"Siyosiy geografiya" fani zamonaviy geosiyosiy jarayonlarni tushunish, tahlil qilish va ularning hududiy oqibatlarini baholashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu fan orqali talabalar dunyo mamlakatlari o'rtasidagi siyosiy munosabatlar, chegara nizolari, geostrategik joylashuv, xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy integratsiya jarayonlari haqida chuqur bilimga ega bo'ladilar.

O'quv dasturida global siyosiy muammolar - masalan, hududiy mojarolar, siyosiy migratsiya, transchegaraviy xavfsizlik, tabiiy resurslar atrofida vujudga kelgan geosiyosiy tortishuvlar, shuningdek, dunyoning turli geosiyosiy mintaqalari bo'yicha tahlillar keng yoritilgan. Bu esa talabalarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy siyosiy-geografik fikrlashga ham tayyorlaydi. Alohida e'tiborli jihat - fanning dolzarbligi. Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi raqobat, strategik sheriklik va qudratli geosiyosiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlar haqida tushunchaga ega bo'lish har bir geografiya sohasidagi mutaxassis uchun muhimdir.

Fan siyosiy xaritalar, statistik ma'lumotlar, zamonaviy tahlil vositalari yordamida o'qitilishi rejalashtirilgan. Talabalar xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi siyosiy jarayonlarni mustaqil tahlil qilish, siyosiy voqealarning hududiy oqibatlarini baholash, ularni xarita va grafiklar orqali aks ettirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Mazkur dastur bugungi kundagi siyosiy barqarorlik, xavfsizlik va hududiy manfaatlar muhokamasida faol ishtirok etadigan, fikrlaydigan va xulosa chiqaradigan mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o'quv rejalariga to'liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi bakalavr talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

**Samarqand davlat pedagogika instituti "Geografiya" kafedrasi assistenti:** **PhD. Y.T.Karimov**

**Samarqand davlat pedagogika instituti "Geografiya" kafedrasi assistenti S.R.Mirzaliyev tomonidan tayyorlangan "Siyosiy geografiya" o'quv fan dasturiga**

## TAQRIZ

"Siyosiy geografiya" - bu nafaqat geografiya, balki siyosatshunoslik, tarix, iqtisod va xavfsizlik kabi fanlar bilan bevosita bog'liq kompleks fan bo'lib, talabalarga davlatlararo munosabatlar, siyosiy kuchlarning hududiy taqsimlanishi va global geosiyosiy dinamikani tushunishga imkon beradi. Fan bugungi kunning dolzarb muammolarini geografik asosda talqin qilishni o'rgatadi.

O'quv dasturi orqali talabalar geosiyosiy mintaqalarning shakllanish sabablari, xalqaro chegaralar tizimi, mustamlakachilik davridagi siyosiy ta'sirlar, zamonaviy siyosiy integratsiyalar (Yevropa Ittifoqi, ASEAN, SHHT, MDH va b.), hamda geosiyosiy raqobat nuqtalarini chuqur o'rganadilar. Bu, ayniqsa, mintaqaviy barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyot masalalarini tahlil qilishda katta ahamiyatga ega. Dasturda nafaqat an'anaviy nazariy bilimlar, balki interfaol darslar, mavzuga oid case-study (voqealar tahlili), siyosiy xaritalar bilan ishlash, geotahlil modellarini qo'llash, mustaqil ilmiy ishlanmalar yaratish kabi metodikalar ham kiritilgan. Bu esa fan o'zlashtirilishini chuqurlashtirib, uni o'ziga xos va tahliliy mazmunga ega qiladi.

"Siyosiy geografiya" fani O'zbekistonning geosiyosiy mavqei, qo'shni davlatlar bilan aloqalari, transport-logistika tizimlari, energetika xavfsizligi, transchegaraviy suv resurslari va boshqa strategik jihatlarni ham yoritib beradi. Bu esa talabalarga faqat global emas, balki milliy miqyosdagi muhim muammolarni ham anglash imkonini yaratadi.

Ushbu fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o'quv rejalariga to'liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi 60111000 – Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi bakalavr talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, fan dasturni nashr etishga loyiq deb hisoblayman.

**Sharof Rashidov nomidagi SamDU**
**Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi professori:** **L.Z.Ibragimov**